

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

З.Т.Исаева	
«Системный подход к анализу парадигматики и синтагматики»	1438
Г.М.Мамаджанова	
Язык как фактор формирования культурных кодов	1442
V.A.Giyosova	
Reference units for children with glutenomies	1446
З.Ш.Нуридинова	
Функции художественного перевода в контексте межкультурной коммуникации	1449
M. T. Xalilova	
Publitsistik uslubga xos mikromatnlarning funksional-semantik belgilari	1452
Z.H.Ubaydullayeva	
Hissiyotlar ifodalanishida psixofiziologiya va etnik xoslanish	1457
A.A. Shodiyeva	
Presuppozitsiya pragmatikaning asosiy obyektlaridan biri sifatida	1462
S.M.Qurbonova	
Antroposentrik lingvistika tarmoqlari	1466
M.A.Xusanova	
Badiiy nutqda qo'llangan og'zaki nutq unsurlarining vazifalariga doir	1473



UO'K: 411.9+413.

BADIIY NUTQDA QO'LLANGAN OG'ZAKI NUTQ UNSURLARINING VAZIFALARIGA DOIR**О ФУНКЦИЯХ ЭЛЕМЕНТОВ УСТНОЙ РЕЧИ, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ В ПОЭТИЧЕСКОЙ РЕЧИ****ON THE FUNCTIONS OF ELEMENTS OF ORAL SPEECH USED IN ARTISTIC SPEECH****Xusanova Ma'rifat Ahmadjonovna**

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy matnda qo'llangan dialektizmlarning vazifalari, ulardan foydalanish maqsadlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, badiiy matndagi dialektal birliklarning ekspressiv imkoniyati, ahamiyati hamda muallif nutqidagi o'ziga xos jihatlari haqida so'z borgan. Maqolada tahlil metodidan foydalanilgan. Maqoladagi fikrlarni tasdiqlash uchun keltirilgan lisoniy dalillar Farida Afro'z she'rlaridan olingan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются функции и цели диалектики, используемой в художественных текстах. Обсуждались также выразительные возможности и значение диалектных единиц в художественном тексте, особенности авторской речи. В статье использован метод анализа. Лингвистические доказательства, подтверждающие мнение, высказанное в статье, взяты из стихов Фариды Афроз.

Abstract

This article discusses the functions of dialectisms used in the literary text and the purposes of their use. Also, there was talk about the expressive possibility and importance of dialectal units in the artistic text, as well as the specific aspects of the author's speech. The analysis method is used in the article. The linguistic evidence given to confirm the opinions in the article is taken from the poems of Farida Afro'z.

Kalit so'zlar: badiiy nutq, dialektizm, ekspressiv-emotsionallik, nasriy asar, she'riy asar, adabiy til, nutqqa xos birlik, personaj nutqi, muallif nutqi.

Ключевые слово: художественная речь, диалектизм, экспрессивно-эмоционализм, прозаическое произведение, поэтическое произведение, литературный язык, речевидовое единство, характерная речь, авторская речь.

Key words: artistic speech, dialectism, expressive-emotionality, prose work, poetic work, literary language, speech-specific unity, character speech, author's speech.

KIRISH

Ma'lumki, boshqa tillar kabi o'zbek adabiy tilida ham uni boyituvchi manbalardan biri dialektal so'zlar hisoblanadi. Chunki so'zlarning ko'pchigi tilimizning uzoq o'tmishini, etnik holatini, xalqimizning turmushi, madaniyati, urf-odatlarini va shu kabilarni o'zida yorqin aks ettiradi. Adabiy til me'yorlari umumiylikni talab qiladi, shuning uchun o'zbek adabiy tiliga shevaga xos ayrim so'zlar olinsa-da, adabiy til hamisha dialektlarni o'ziga bo'ysundirishga, ularni umumlashtirishga intiladi. Biroq, badiiy nutq imkoniyatlari shu qadar kengki, ijodkorlar ekspressivlikni ta'minlash, nutqning ta'sirchanligini yanada oshirish maqsadida she'riy nutqda ham o'g'zaki nutqqa xos birliklardan, xususan, dialektizmlardan unumli foydalanadilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tildagi mavjud so'zlarning muayyan qismi hududiy jihatdan cheklangan bo'lib, ular xalq tilining ma'lum qatlamini tashkil qiladi. Bunday so'zlar ma'lum joy, viloyat, tuman aholisi tomonidagina qo'llanib, ana shu aholining o'ziga xos belgilaridan biri sifatida yashaydi. Shunga ko'ra, bu so'zlar tilshunoslikda shevaga xos so'zlar yoki dialektal so'zlar nomi bilan yuritiladi. [1,18]

Dialektal so'zlarning ko'pchiligi, garchi qo'llanishda hududiy jihatdan cheklangan bo'lsa ham, lekin barcha sheva vakillari uchun tushunarli, ayrimlari esa qisman, u yoki bir daraja anglasharli bo'lib, turli qo'shimcha izohlarsiz ham ishlatilaveradi. Dialektizmlar, qator tilshunos olimlar ta'kidlaganidek, badiiy nutqda, asosan, nasriy asarlarda muhim uslubiy maqsad bilan qo'llanib, mahalliy koloritni tasvirlashga, asar qahramonlarining nutqiy xarakteristikasini berishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, ular nutqiy ekspressivlikning, ya'ni ifodalilikning ham manbayi bo'la oladi. Bu ko'proq she'riy asarlarda kuzatiladi.

Dialektal birliklarning muallif tilida qo'llanishi bilan personaj nutqida qo'llanishi mutlaqo alohida-alohida hodisalardir. O'rni bilan muallif tilida qo'llangan dialektizmlar u yoki bu mahalliy koloritni ifodalashga xizmat qilsa-da, dialektizmlarning haqiqiy estetik mohiyati, asosan, personaj nutqida yaqqol ko'rinadi, dialektizmlar xarakterologik va ekspressiv imkoniyatlarni ana shu personaj nutqida haqli ravishda namoyon qila oladi. [1,16] Ushbu fikrlar nasriy asarlarda qo'llanadigan dialektizmlar to'g'risida.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Og'zaki nutqqa xos birliklar, xususan, dialektizmlar poetik nutqda ham turli maqsadlar bilan lirik qahramon nutqida qo'llanib, she'r matnini badiiy jihatdan boyitadi. Qiyida Farida Afro'z she'riy asarlaridan keltirilgan namunalar orqali dialektal birliklarning qo'llanishi bilan bog'liq ba'zi lisoniy dalillarni keltirib o'tamiz:

Yoz **chillasi** doshqozonida,
qovurdoqdek qovurib,
garmselda sovurib,
shimolga shaftoli tutgan bog'bon –
mening Vatanim! (F. A.)

Yuqoridagi poetik nutqda dialektizm yozning "eng issiq vaqti" so'zlar bog'lanmasi o'rnida qo'llanib, birinchidan, misra ohangiga mos holda ifodani ixchamlashtirgan, ikkinchidan, bu so'zda ma'noning semantik bo'yog'i yuqori, adabiy tildagi *qish chillasi* birikmasi "eng sovuq qirq kun" ma'nosini anglatganidek, bu o'rinda yoning eng issiq davri ma'nosini bo'rttirib ko'rsatadi.

Quyidagi she'riy parchada birinchi dialektizm (*chalg'ib bo'pman*) ko'makchi-yetakchi elementli fe'lining o'ziga xos dialektal inkor shaklida ifodalangan bo'lib, qat'iy inkor ma'nosini kuchaytiradi:

O'zimga so'z berdim:
Har kun yozaman!
Chalg'ib bo'pman endi talo-to'mlarga,
Olib ketolmaydi xayollarimdan,
Erk beraman endi tuyg'um, o'ylarga.
Ahdimda turaman: Mana ko'rasiz!
She'r kerakmi, sizga, o'qisangiz bas.

Quyidagi misralarda dialektal so'zlar soni ko'p bo'lib, ular poetik matnning ravon va musiqiyiligini oshirgan:

Sog'ina, sog'ina, sog'inmay qo'ydim,
Xo'p telba ko'ngilga **cho'pchaklar** aytdim.
Aldashni o'rgandim yurakni **boplab**,
Daryoga **oborib** sug'ormay qaytdim.

Yuqoridagi misralarda ham xo'p (rosa), cho'pchak (ertak), boplab (qoyil qilib), oborib (olib borib) dialektizmlarida anglashilayotgan ma'no nisbatan bo'rttirib ifodalangan. Xususan, cho'pchak so'zida "uydirma" ma'nosi ortiq, **oborib** so'zida so'zning shakliga muvofiq harakatni qisqa, tez va oson amalga oshirish ma'nolari ustunlik qiladi.

Sinonimik qatorda dialektal so'zlar ma'nosi ko'pincha adabiy tildagi variantiga nisbatan ortiqroq semantik bo'yog'ga ega bo'ladi. Shuning uchun muallif, ayniqsa, holat, miqdor kabi belgi ifodalovchi so'zlar o'rnida dialektizmlarni qo'llaydi.

1. Yomg'ir mening...
Yomg'ir sening...
Tinay desak,
Guldiraydi

TILSHUNOSLIK

Momoqaldiroq,
Ikkimizning **naq** tepamizda.
2. Hammaga o'xshagim kelmaydi **asti**,
Balki ular menga o'xshagisi yo'q.
3. Opa,
to'shagingda toshlar bormidi,
Chag'ir ekan **biram**, jonimga botdi.
Bir kungina qolib, evoh, bilmadim,
Bu tosh **bolishingda** qanday tong otdi?!

Yuqoridagi misollarda dialektizmlar sinonimlariga nisbatan ma'nosini kuchli ifomalash imkoniyatiga ega bo'lganligi uchun qo'llanib, fikrning yorqin ifodalanishini ta'minlagan.

Aksariyat dialektizmlarda sinonimlariga qaraganda fonetik jihatdan ham, semantik jihatdan ham dag'allik, jaydarilik, qolaversa, samimiylik semalari yuqori bo'ladi. She'riy asarlarda ham lirik qahramon ruhiyatidagi ana shu xususiyatlarni ko'rsatish maqsadida qo'llangan dialektizm poetik nutqni ravonlashtiradi, ixchamlashtiradi, soddalashtiradi, xalq qalbiga yaqinlashtiradi. Shuning bilan she'rning "o'qishli" bo'lishi ta'minlanadi. Fikrimizni quyidagi misollar bilan tasdiqlash mumkin:

1. Yorilgin tosh, yorilgin-ey,
Yo'qotganim **tillomni** top.
Hali mening yumushim ko'p,
Gapim ko'pdir **otambop**.
2. Ikki yoshni qo'shmoqlik
Savob deydilar vojib.
Falochining o'g'liga
Falochi qiz munosib.
3. **O'rgilay**, tanti elim,
Himmatingga qul bo'lay,
Bir savob deb gir chopgan
Qadamingga yo'l bo'lay!
Ayting, **ena**, qay yurtda?
Nechun bu so'z muqaddas,
Savobda ne hikmat bor?

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, hatto undov so'zlarning ham og'zaki nutqning o'zigagina xoslari bor, bunday dialektizmlarda emotsiya ancha yuqori bo'ladi, shuning bilan poetik nutqda yuqori ekspressivlik hosil qiladi:

1. Endi sening bo'yningda bilaklarim gullaydi,
Bellaringa chirmashib gulpechaklar bo'ylaydi,
Sensiz yashab bo'lmaydi,
sensiz endi kunim yo'q,
Bo'lmaydi, **hey**, bo'lmaydi, sensiz yashab bo'lmaydi!
2. Ichimdan...
ichimdan... bir tovush kelmoqda...
bir tovush kelmoqda guldirak misol,
Sel olish xavfi bor,
tog'u toshlarni...
Yig'lagim kelyapti...
Ha, demak,
Ha, demak,
SHE'R kelyapti, **PO'SHT-PO'SHT!**
Yo'ldan qoching, **PO'SHT-PO'SHT!** (F. A.)

Umuman, dialektizmlar adabiy nutqda, xususan, she'riy asarlarda juda katta estetik vazifani bajaradi. Dialektal so'zlarni poetik asarga olib kirish o'ziga xos individual uslub bilan bog'liq hisoblanib, shubhasiz, dialektizmlar bilan adabiy tilga oid so'zlarning munosabatiga asoslanadi. Ana shu munosabat asosida adabiy tilga oid so'zlar bilan qarshilantirilgan dialektizmlar o'ziga xos estetik qimmat kasb etadi.[4, 292].

XULOSA

Dialektizmlarning estetik qimmatini belgilashda dialektizmlarning boshqa so'zlar bilan kontekstda qanchalik darajada muvofiq birikib ketganligi yoki ketmaganligi, ularning ichki uyg'unlashuvidan kelib chiqish kerak bo'ladi.

Qolaversa, muallifning qanday dialektal so'zni ishlatganligi ham alohida e'tiborga molik. Dialektizmlarning ko'proq qo'shimcha izoh talab qilmaydaganlarini, kitobxon umumiy kontekstga ko'ra tushinib olaveradiganlarini badiiy nutqqa kiritish yoki ularning sinonimlariga qaraganda ekspressiv imkoniyati yuqori bo'lganini qo'llash uslub egasining yutug'i hisoblandi.

Dialektizmlar badiiy nutqda muayyan estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va ayni qanday dialektizmlarning qo'llanishi bilan bog'liqdir. Dialektizmlarning badiiy asar tilida me'yoridan ortiq darajada qo'llanishi asarning estetik qimmatini, uning ta'sir kuchini pasaytiradi, asar tilining ravonligiga putur yetkazadi. Dialektizmlardagi mavjud ifodalilikni, ekspressivlikni tushuna bilmaslik, dialektizmlarni qo'llashda me'yordan chetlashish ortiqchalik, uslubiy xatoni keltirib chiqarib, asarning saviyasi yoki asarnin qadr-qimmatini pasaytirishi tabiiy.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. АбдурахмоновУ., МахмудовН. Суз эстетикаси. Тошкент. Фан, 1983. Б-28.
2. АбдуллаевА. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. Тошкент. Фан, 1987.
3. Xusanova, M.A. Farida Afro'z asarlarida dialektizmlar ekspressivlik ifodalovchi vosita sifatida. НамДУ илмий ахборотномаси. 2021. № 5. Б-292.
4. Xusanova, M.A. The use of archaism in the works of Farida Afroz. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 04, volume 96 published April 20, 2021. Soi: <http://s-o-i.org/1.1TAS-04-96-51> Doi <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC:1208.
5. Xusanova, M.A. The use of expressive phonetic means in farida afroz s works. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 09, volume 101, published September 28, 2021. Soi: <http://s-o-i.org/1.1TAS-09-101-81> Doi <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC:1200.